


## Dastlabki ma'lumotlar

## 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi 16 070,5 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 15 370,4 mlrd. so'mni (103,9 %), o'rmon xo'jaligi – 464,5 mlrd. so'mni (102,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 235,6 mlrd. so'mni (107,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.



## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2022- yilning yanvar- dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiylajimi 95,6 % i –dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,9 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,5 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so'm)**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (4 680,8 mlrd. so'm), Qiziltepa (3 179,6 mlrd. so'm) va Navbahor (2 538,1 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Zarafshon (61,1 mlrd. so'm), G'ozg'on shahar (72,9 mlrd. so'm)larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahar (121,6 %), Tomdi tumani (112,9 %), Karmana tumani (107,7 %), aksincha Qiziltepa tumani (103,6 %) Xatirchi tumani (103,5 %), G'ozg'on shahar (72,9 %) Zarafshon shaharlar esa (67,1 %) past sur'atlar kuzatildi.


## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 15 266,7 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 5 419,5 mlrd. so'mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari 9 847,2 mlrd. so'mni (104,2%) tashkil qildi.

### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  
hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,8 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 28,6 % i – fermer xo‘jaliklariga, 5,6 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da**




2022-yilning yanvar- dekabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (35,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida (90,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (24,1 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 419,5 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 35,5 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar


**Hajmi, ming tonna.**



**Oʼsish surʼati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 250,9 ming tonna don (2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 4,3 % ga koʻp) yetishtirildi. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʼyicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 86,1 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʼgʼri kelishini koʻrsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
donli ekinlar yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Kartoshka


**Hajmi, ming tonna.**




**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 85,6 ming tonna kartoshka (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 85,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha  
**kartoshka yetishtirish**  
**hajmi, tonna**




## Sabzavotlar


**Hajmi, ming tonna.**



**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 320,3 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 76,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
sabzavotlar yetishtirish  
hajmi, tonna**




## **Poliz ekinlari**


**Hajmi, ming tonna.**



**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 100,5 ming tonna poliz ekinlari (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,8 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 60,7% i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
poliz ekinlari yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 108,6 ming tonna meva va rezavorlar (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,5 % ga ko'p) yetishtiриldi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiylajmidan 61,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
meva va rezavorlar  
yetishtirish hajmi, tonna**




## **Uzum**


**Hajmi, tonna.**



**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,1 ming tonna uzum (2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 5,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiylajmidan 54,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha  
**uzum yetishtirish**  
hajmi, tonna



## Chorvachilik

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 9 847,2 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 64,5 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 180,6 ming tonna goʼsht (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,3 % ga koʼp), 520,6 ming tonna sut (4,6 % ga


ko‘p), 385,4 mln. dona tuxum (6,5 % ga ko‘p) yetishtirildi va 13 995,0 tonna baliq (9,6 % ga ko‘p) ovlandi.

### **Go‘sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming tonna.**



**O’sish sur’ati**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**



**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**




**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 180,6 ming tonna go‘sht (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiyligi hajmidan 86,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.




Navoiy viloyati bo'yicha  
go'sht (*tirik vaznda*)  
yetishtirish hajmi, tonna




## **Sut**


**Hajmi, ming tonna.**



**O'sish sur'ati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo'jaliklari**



**Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari**




**Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 520,6 ming tonna sut (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
sut yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Tuxum


**Hajmi, mln. dona**



**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 385,4 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 6,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiylajmidan 70,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Navoiy viloyati bo'yicha  
tuxum yetishtirish  
hajmi, ming dona**




## Baliq ovlash


**Hajmi, tonna.**



**O'sish sur'ati**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo'jaliklari**




**Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari**




**Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar**




2022- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 13995,0 tonna (2021- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 9,6 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalariboyicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiylajmidan 74,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Navoiy viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 27,7 % i fermer xo'jaliklariga, 57,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 12,9 % i fermer xo'jaliklariga, 59,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soni 541,7 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13,3 ming taga (2,5 %) ko'paydi.

### **Yirik shoxli qoramollar**


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati  
bo'yicha **yirik shoxli**  
**qoramollarning umumiy**  
**bosh soni, ming bosh**




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 218,0 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni (1,5 %) ga ko'paydi.

### **Sigirlar**


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,4 % i dehqon dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati  
bo'yicha **sigirlarning**  
umumi bosh soni,  
ming bosh




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 378,6 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilalar bosh soni 57,3 ming taga (2,5 %) ko'paydi.

### **Qo'y va echkilalar**



#### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**


**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 57,9 % i dehqon dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumi bos soni,  
ming bosh




2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 21 541 taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 342 taga (1,6 %) ko'paydi.

## Otlar


**Soni, bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 50,3 % i dehqon dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiyl bosh soni, bosh




2023-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 403,1 ming taga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 154,8 ming taga (4,8 %) ko'paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2023-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 59,6 % i dehqon dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Navoiy viloyati  
bo'yicha  
**parrandalarning**  
umumiy bosh  
soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 79-223-23-40